

**GEOGRAFIYA TA'LIMIDA KLASTER METODINI  
QQ'LLASH ORQALI Q'QUVCHILARNING TANQIDIY  
FIKRLASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH  
IMKONIYATLARI**

<sup>1</sup>Avazov Sherimmat, Toshkent davlat pedagogika universiteti  
“Botanika va ekologiya” kafedrasi professori

<sup>2</sup>Atabaeva Mavjuda, Urganch davlat universiteti Akademik  
litseyining geografiya fani o‘qituvchisi

**POSSIBILITIES OF DEVELOPING STUDENTS'  
CRITICAL THINKING SKILLS BY USING THE CLUSTER  
METHOD IN GEOGRAPHY EDUCATION**

<sup>1</sup>Avazov Sherimmat, professor of the department of “Botany and  
ecology” of the Tashkent state pedagogical university

<sup>2</sup>Atabaeva Mavjuda, teacher of geography at the Academic  
lyceum of Urgench state university

**ВОЗМОЖНОСТИ РАЗВИТИЯ УМЕНИЙ  
КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ УЧАЩИХСЯ  
ПОСРЕДСТВОМ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ КЛАСТЕРНОГО  
МЕТОДА В ОБУЧЕНИИ ГЕОГРАФИИ**

<sup>1</sup>Авазов Шериммат, профессор кафедры «Ботаника и  
экология» Ташкентского государственного педагогического  
университета

<sup>2</sup>Атабаева Мавжуда, преподаватель географии  
Академического лицея Ургенчского государственного  
университета

**Аннотация:** Maqolada geografiya ta'limi jarayonida interfaol texnologiyalar yordamida maktab o‘quvchilarining tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish muammosi ko‘rib chiqilgan. Klaster uning metodlaridan (usullaridan) biri. “Klaster” usulidan foydalanish asosida o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishning bosqichli texnologiyasi taklif etiladi.

**Kalit so‘zlar:** geografiya ta'limi metodikasi, o‘qituvchi, o‘quvchi, interfaol texnologiya, tanqidiy fikrlash, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasi, ko‘nikma, chaqiriq (da’vat), anglash (tushunish), fikrlash (refleksiya), klaster, metod, usullar.

**Annotation:** The article examines the problem of developing the critical thinking skills of schoolchildren with the help of interactive technologies in the process of teaching geography. Cluster is one of its methods (techniques). A step-by-step technology for developing students' critical thinking skills based on the use of the “cluster” technique is proposed.

**Key words:** methods of teaching geography, teacher, learner, interactive technology, critical thinking, technology for developing critical thinking, skill, challenge, comprehension, reflection, cluster, method, techniques.

**Аннотация:** В статье рассматривается проблема развития умений критического мышления школьников с помощью интерактивных технологий в процессе обучения географии. Кластер - один из его методов (приемов). Предлагается поэтапная технология развития умений критического мышления учащихся на основе использования приема «Кластер».



atabayevamatavjuda@gmail.  
com,

[https://orcid.org/0009-  
0005-7495-6894](https://orcid.org/0009-0005-7495-6894)

**Ключевые слова:** методика обучения географии, учитель, учащийся, интерактивная технология, критическое мышление, технология развития критического мышления, умение, вызов, осмысление, рефлексия, кластер, метод, приёмы.

**KIRISH.** Zamonaviy milliy ta’lim modernizatsiyasining yetakchi yo‘nalishi - bu kompetentlik yondashuvi. Ta’limdagi kompetentlik yondashuvi turli fanlar bo‘yicha bilimlar hajmini oshirish bilan cheklanmaydi, balki o‘quvchilarning mustaqil bilim olishlari, ularni notanish vaziyatlarda qo‘llash ko‘nikmasini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratishni ham o‘z ichiga oladi. Umuman olganda, ta’limdagi kompetentlik yondashuvini “nimani bilish” orqali emas, balki “qanday bilish” tushunchasi orqali aniqlash mumkin. Hozirgi o‘quvchini bilish faoliyati bilan shug‘ullanishga, axborot va muloqot maydonida maqsad sari yo‘l topishga undash nihoyatda qiyin masala. Buning boisi shundaki, o‘quvchilar ko‘pincha barcha fanlar bo‘yicha o‘quv materialini idrok etishda jiddiy qiyinchiliklarga duch kelishadi. Buning asl sababi tafakkurning, eng avvalo, tanqidiy (tahliliy) tafakkur, ya’ni fikrlashning yetarli darajada rivojlanmaganligi hisoblanadi. Shuning uchun o‘quvchining aqliy sohasini va uning tanqidiy fikrlashini rivojlantirish dolzarb muammoga aylangan.

**ASOSIY QISM.** Tanqidiy va ijodiy fikrlash tushunchalari ham o‘zaro uzviy bog‘langan. “Aqliy hujum” kabi ish shakllari haqida gap ketganda mazkur tushunchalar bir xil kontekstda qo‘llaniladi va rivojlanadi. Ijodiy fikrlash – u yoki bu masalaning tubdan yangi yoki takomillashgan yechimini topishga olib keladigan fikrlashdir. Tanqidiy fikrlash taklif qilingan yechimlarning qo‘llanish doirasini aniqlash maqsadida tekshirib ko‘rishni nazarda tutadi. Ijodiy fikrlash yangi g‘oyalarni yaratishga qaratilgan bo‘lsa, tanqidiy fikrlash esa ularning kamchiliklarini ochishga qaratilgan bo‘ladi. Masalani samarali hal qilish uchun har ikki turdagи fikrlash talab etiladi, garchi ular alohida qo‘llanilsa ham: ijodiy fikrlash tanqidiy fikrlashga xalaqit beradi va aksincha. Haqiqatan foydali, samarali yechimlarni ajratib olish uchun ijodiy fikrlash tanqidiy fikrlash bilan to‘ldirilishi kerak. Demak, tanqidiy fikrlashning maqsadi taklif qilingan g‘oyalarni sinab ko‘rish, ya’ni ularni qo‘llasa bo‘ladimi; ularni qanday takomillashtirish mumkin kabi savollarga javob topishdan iborat.

Geografiya ta’limidagi interfaol texnologiyalar o‘zaro munosabatga, bir-birini

tushunishga va umumiylar muammolarni birgalikda hal qilishga olib keladigan dialogik muloqotni tashkil etish va rivojlantirishni o‘z ichiga oladi. Interfaol geografik ta’lim tahliliy, tanqidiy va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarining rivojlanishini rag‘batlantiradi.

Interfaol texnologiyalar geografiya ta’limiga majmuiy yondashuvning muhim sharti va natijasi sifatida namoyon bo‘ladi [9; 10]. Zero, o‘qituvchining faqat o‘z fani, ya’ni geografiyanı chuqur bilishi ko‘pincha eng maqbul ijodiy o‘rganish imkoniyatini yaratmaydi. Har bir geografiya o‘qituvchisi, qayerda ishlashidan qat’i nazar, mashg‘ulotlarning muvaffaqiyati ta’lim jarayonida faollikning vujudga kelishiga ko‘p jihatdan bevosita bog‘liqligini juda yaxshi biladi. O‘quvchilarning nafaqat geografiya, balki turli fan sohalari bo‘yicha olgan bilimlarni kundalik faoliyatda qo‘llashi tufayli amaliy ko‘nikmalarini yanada aniqlashib, hayotiy ahamiyat kasb etadi.

Interfaol ta’lim jarayoniga zamonaviy o‘quv-texnika vositalarini joriy etish orqali yangi mazmunga ega bo‘lgan ko‘rsatmali ta’lim tamoyiliga amal qilinadi. Interfaol geografiya ta’limida ko‘rsatmalilik tamoyili katta ahamiyat kasb etib, tabiat va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning hududiy jihatlari (yer, suv, havo, tekislik, tog‘, daryo, ko‘l, shahar, qishloq, yo‘l, dala, manzara, chegara, areal, shakl, o‘lcham, nisbat, nisbiy holat va shu kabilar) xaritalar, rasmlar, diagrammalar, jadvallar, chizmalar va boshqa ko‘rsatmali vositalar orqali ochib beriladi.

Hozirgi davrda yangi geografik bilimlar ham, qadriyatlar ham shaxsiy kompyuter yordamida egallanmoqda va o‘rganilmoqda. Geografiya bo‘yicha ishlab chiqilgan dasturlar asosiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo‘yilgan bo‘lib, shaxsiy kompyuterlar geografiya ta’limi jarayonini jadallashtirish, o‘quvchilar bilimini chuqurlashtirish hamda dunyoqarashini kengaytirishning didaktik vositasi bo‘lib xizmat qilmoqda. Bunda bir qator xaritagrafik va grafik operatsiyalarini avtomatlashtirish orqali samaradorlikka erishiladi. Bunday dasturning dolzarbligi shundaki, o‘quvchilar egallagan geografik bilimlarni real sharoitda qanday qo‘llashni bilib olishadi. O‘rganilayotgan geografik material amaliy, ijodiy-

tadqiqiy xususiyatga ega bo‘ladi. Xususan, o‘quvchilarga dastlabki xaritagrafik ishlarni bajarish jarayonidayoq ijodiy elementli topshiriqlar taklif qilinishi mumkin.

Masalan, interfaol geografiya darslarida yangi materialni o‘rganish bosqichida kompyuterdan turli xil usullarda foydalanish mumkin:

1) o‘quvchilarga Microsoft Power Point dasturi yordamida taqdimot ko‘rinishida yangi ma‘lumotlarni taqdim etish;

2) o‘quvchilarga maxsus dasturlar yordamida grafik interfeys (graphical user interface) asosida yangi materialni ko‘rsatmali taqdim etish;

3) o‘rgatuvchi yoki rivojlantiruvchi dasturlarni yaratib, o‘quvchilarga yangi materialni taqdim etish;

4) yangi materialning amaliy qismini Paint, Adobe Photoshop va shu kabi dasturlar yordamida ko‘rsatish.


Tanqidiy tafakkur, xususan, makoniy (hududiy) tafakkurning rivojlanishi aql-idrok (intellekt) bilan chambarchas bog‘liqdir. Ta’kidlash joizki, geografiya ta’limida ZeeMaps, Scribble Maps, Animaps kabi vositalar asosida turli mazmundagi xaritalar yaratish usullarini mashq qilish bo‘yicha topshiriqlarni bajarish jarayonida hatto past o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar ham ishtiyoq bilan ishlay oladi. Axborotni taqdim etishning grafik usullari ta’limga faoliyatli yondashuvni ta’minlaydi, o‘quvchilarda tahlil va sintez qilish ko‘nikmalarini va mustaqil izlanish amallarini shakllantiradi, ta’lim jarayonini tabaqaqlashtirish va individuallashtirish tamoyillarini hamda makoniy va tanqidiy fikrlash jarayonlarini amalga oshirishga imkon beradi. Demak, geografiya ta’limida o‘quvchilarning o‘quv-bilish faoliyatini tashkil etishda interfaol shakl, metod hamda

texnologiyalardan foydalanish ularning tanqidiy tafakkuri va faolligini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.


Shu sababli klasterdan darsning umumiyoj rejasiga sifatida butun dars davomida, ya’ni uning barcha bosqichlarida foydalanish mumkin. Xususan, dars boshlanishida o‘quvchilar mavzu bo‘yicha o‘zlariga ega bo‘lgan barcha axborotma‘lumotlarni to‘plab, qog‘ozda qayd qiladilar. Dars davomida chizmaga asta-sekin yangi ma‘lumotlar kiritilib (qo‘shib) boriladi. Ularni turli rangda ajratib ko‘rsatish tavsiya etiladi. Bu usul asosiy tushunchani ta’kidlash (ajratib ko‘rsatish) asosda mo‘ljal olishni, oldindan aytish, to‘ldirish va tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Geografik faoliyat o‘quvchilarning hayotiy tajribasini turli jihatdan boyitadi, ularga keyingi kasbiy faoliyatida ilmiy tushunchalarni egallash va qonuniyatlarini ochishda qo‘llash mumkin bo‘lgan geografik materialni beradi. Geografik faoliyat tufayli sezish, idrok etish, tasavvur va tafakkur kabi bilish jarayonlari bir vaqtning o‘zida amalga oshadi va o‘quvchilarda ko‘plab aqliy funktsiyalar birligi vujudga keladi. “Geografiya” fanining predmeti tabiat va jamiyat o‘rtasidagi hududiy munosabatlar bo‘lganligi uchun uning ilmiy bilimlar tizimida boshqa fanlarga tegishli bilimlar tizimining elementlaridan eng ko‘p foydalilanildi: bu interfaol ta’limga asoslangan fanlararo mashg‘ulotlarni loyihalash uchun nazariy-metodik asos bo‘la oladi

Dars jarayonida qo‘llaydigan fikrlarimiz endi noqulay emas, balki “klasterlashtirilgan”, ya’ni muayyan tartibda joylashtirilgan, tizimlashtirilgan bo‘ladi. Bunda dars jarayonida beriladigan bilim malakalar chizmali sxemali tarzda bo‘ladi, masalan, “O‘zbekistonning geografik o‘rnini va tabiiy sharoiti, relyefi” mavzusini yoritmoqchi bo‘lsak, bunda quyidagi klasterlardan foydalansak maqsadga muvofiq bo‘ladi.



1-rasm. O‘zbekistonning orografik chizmasi klasteri



**2-rasm. O'zbekiston siyosiy chegarasi klasteri**

Klasterni tuzish bo'yicha bir qator tavsiyalar ishlab chiqilgan. Uni yaratishda esga tushgan hamma narsani, hatto ular qandaydir taxminlar yoki tasavvurlar bo'lsa ham, hech ikkilanmasdan, ya'ni qo'rmasdan ifodalash va yozish kerak bo'ladi. Ish davomida noto'g'ri yoki noaniq bo'lgan ba'zi bir fikr-mulohazalar tuzatilishi yoki to'ldirilishi mumkin. O'quvchilar o'zlarining tasavvurlari va ichki his-tuyg'ulari izmida bo'lib, ishonch bilan barcha g'oyalar tugashiga qadar ishlashda davom etishi mumkin. Ma'noli birliklar – so'zlar soni ko'payib ketishidan qo'rmay, iloji boricha ular o'rtasida ko'proq aloqa o'rnatishga harakat qilish kerak. Tahlil jarayonida barcha so'zlar, tushunchalar tizimga solinadi va o'z joyiga tushadi. Klaster usulini barcha tipdagi darslarda turli mavzularni o'rganishda samarali qo'llash mumkin.

Ushbu usuldan ta'limning yakka tartibdagisi, guruhli va jamoaviy shakllarini tashkil etishda foydalanish mumkin. Bir tashkiliy shakldan boshqasiga o'tishga yo'l qo'yiladi. Bu darsning maqsadi va vazifalari, o'qituvchi va o'quvchilar jamoasi imkoniyatlariiga qarab belgilanadi. Masalan, klaster chaqiriq (da'vat) bosqichida

yakka tartibdagisi ish shaklida bo'lib, har bir o'quvchi daftarida o'z klasterini yaratadi. O'quvchining shaxsiy chizmalari va darsda olgan bilimlari asosida yangi bilimlar shakllanishi bilan o'tilgan materialni birgalikda muhokama qilish sifatida umumiy grafik chizma chiziladi. Klasterdan darsda metodik usul, shuningdek uy vazifasi sifatida ham foydalanish mumkin.

#### **ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Эннис Р.Х. Таксономия места критического мышления и способностей / КМ новости. – 1985.– №1. – С.12
2. Халперн Д. Психология критического мышления / Д.Халперн. – СПб.: Питер, 2000. – 512 с.
3. Glaser R. (1984) Education and thinking: The role of knowledge. American Psychologist, 39(2), 93-104.
4. Ноэль-Цигульская Т.Ф. О критическом мышлении [Электронный ресурс]: 2000 // [http://zhurnal.lib.ru/c/cigulskaja\\_t\\_f/criticalthink.shtml](http://zhurnal.lib.ru/c/cigulskaja_t_f/criticalthink.shtml)
5. Клустер Д. Что такое критическое мышление? // Критическое мышление и новые виды грамотности. - М.: ЦГЛ, 2005. - С. 5-13.